“KINDER” Jamg‘arma omonatining asosiy shartlari to‘g‘risidagi

AXBOROT VARAQASI

Tijorat bankining nomi, rasmiy veb-sayti, telefon raqamlari	“Trastbank” XAB, www.trastbank.uz +99878-140-00-88

1-bo‘lim. Omonatning asosiy shartlari

1. Omonat nomi	**KINDER**
2. Omonatning valyutasi	AQSh dollari
3. Omonat bo‘yicha yillik foiz stavkasi*	4,0%
4. Omonat bo‘yicha hisoblangan foizlarning kapitalizasiyasi mavjudligi	Yo‘q
5. Omonatning muddati	Omonatchi 18 yoshga to‘lguniga qadar
6. Omonatga qo‘yiladigan mablag‘ning eng kam miqdori	50 AQSh dollari
7. Omonat bo‘yicha foizlarni to‘lash davriyligi	Muddat oxirida
8. Omonatni rasmiylashtirish usuli *(onlayn yoki bankka tashrif buyurish orqali)*	Bank ofislari orqali
9. Qo‘shimcha mablag‘ kiritish imkoniyati	Ha
10. Avtouzaytirish *(omonat muddati tugaganda omonat muddatini bank tomonidan bir tomonlama uzaytirish)*	Yo‘q
11. Boshqa shartlar	Omonatchi omonat muddati tugagandan keyin omonatni qaytarib olmasa, keyingi amaliyot kunida uning uchun talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘i ochiladi. Omonat va u bo‘yicha hisoblangan foiz, ushbu kundan boshlab, Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘idagi shaxsiy hisobvaraqqa o‘tkaziladi.

2-bo‘lim. Boshqa muhim shartlar

1. Omonatga qo‘yilgan pul mablag‘larini omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyatining mavjudligi	Yo‘q
2. Omonat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi	Omonat bo‘yicha hisoblangan foizlar omonat saqlangan to‘liq oylar uchun to‘liq to‘lanadi va to‘liq bo‘lmagan oy uchun hisoblangan foizlar bekor qilinadi hamda to‘lanmaydi.

**O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga muvofiq (30,351 va 382-moddalar), soliq rezidenti maqomiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlaridan bank tomonidan omonat bo‘yicha to‘langan foizlar (daromadlar) dan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda soliq ushlab qolinadi (to‘langan foizlar summasining 10%). Soliq rezidenti maqomini tasdiqlash uchun omonatchi bankka soliq organi tomonidan tasdiqlangan soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi shart.*

Omonat qo‘yishga rozi bo‘lishdan oldin diqqat bilan o‘rganib chiqing!

Siz omonatning shartlari, omonat bo‘yicha foiz daromadlari va hisob-kitoblar tartibi to‘g‘risida, shuningdek, huquqlaringiz va majburiyatlaringiz, Sizga tushunarsiz bo‘lgan boshqa masalalar yuzasidan bankdan to‘liq va batafsil ma’lumot olishga haqlisiz.

Agar Sizda shikoyatlar mavjud bo‘lsa, u holda Siz murojaatingizni +99878-140-00-88 raqamli telefonga yoki 100011, Toshkent shahri “Navoiy” ko‘chasi 7-uymanzilga yoki elektron INFO@TRUSTBANK.UZ manzilga jo‘natishingiz mumkin.